

## YANGI O'ZBEKİSTONDA MAHALLA INSTITUTI FAOLİYATI VA UNİNG İSTİQBOLLARI

*Maxmudov Feruz Tulkinovich, IIV Malaka oshirish instituti  
tadqiqotchisi*

### ACTIVITIES OF THE MAHALLA INSTITUTE IN NEW UZBEKISTAN AND ITS PROSPECTS

*Makhmudov Feruz Tulkinovich, Researcher at the Institute for  
Advanced Training*

### ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ИНСТИТУТА МАХАЛЛЯ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ И ЕЕ ПЕРСПЕКТИВЫ

*Махмудов Феруз Тулкинович, научный исследователь  
Института повышения квалификации МВД*



[https://orcid.org/0460-0202-  
5240-0564](https://orcid.org/0460-0202-5240-0564)

e-mail: [maxmudov  
feruz@gmail.com](mailto:maxmudov_feruz@gmail.com)

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Yangi O'zbekistonda mahalla instituti faoliyati va uning istiqbollari masalasi yoritilgan. Yurtimizda "Mahallabay" tizimining amaliyotda samarali ishlashini ta'minlash mexanizmlari ishlab chiqilmoqda. Bugungi kunda mahallalarni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha respublika, viloyat va tuman (shahar) kengashlari joriy etilmoqda.

**Kalit so'zlar:** mahallabay ishlash, mahalla, mahalla beshligi, mahalla yettiligi, ijtimoiy himoya.

**Abstract:** This article reflects the essence and philosophical features of the neighborhood work system in New Uzbekistan. In our country, mechanisms are being developed to ensure the effective functioning of the "Mahallabay" system in practice. Today, republican, regional and district (city) councils are being introduced for the development and support of neighborhoods.

**Key words:** neighborhood work, neighborhood, neighborhood five, neighborhood seven, social protection.

**Аннотация:** В данной статье отражена сущность и философские особенности системы махаллинской работы в Новом Узбекистане. В нашей стране разрабатываются механизмы, обеспечивающие эффективное функционирование системы "Махалля" на практике. Сегодня для развития и поддержки микрорайонов введены республиканские, областные и районные (городские) советы.

**Ключевые слова:** махаллинская работа, махалля, "махаллинская пятерка", "махаллинская семерка", социальная защита.

**KIRISH.** Mahalla instituti yurtimizda ming yillar davomida sinalgan va chuqur ildiz otgan, aholini birlashtirib turadigan ijtimoiy hodisa. Ayniqsa, bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida xalqimizning urf-odatlari, an'analari va qadriyatlarini saqlab qolish, ularni jipslashtirish kafolati sifatida mahallalar maydonga chiqmoqda. Shu bilan birga, mahalla tizimida bir qator kamchiliklar to'planib qolganini tan olish lozim.

2023-yil 26-sentyabr kuni O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida

mahallabay ishlash tizimini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari muhokamasi yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida O'zbekistonda barcha ijtimoiy-iqtisodiy dasturlar aholi talabidan kelib chiqib, joylarda amalga oshirilayotganligi alohida qayd etildi. Buning uchun mahallalarga ko'plab vakolatlar, tashkiliy va moliyaviy imkoniyatlar berilgan bo'lib, mahalla raisi, hokim yordamchisi, xotin-qizlar faoli, yoshlар yetakchisi hamda profilaktika inspektoridan iborat "beshlik tizimi" tashkil etildi. Lekin ularning o'zaro muvofiq

ishlashida kamchiliklar, juda ko‘p takrorlanishlar bor. Ijtimoiy maqsaddagi mablag‘lar ba’zan samarasiz yo‘naltirilmoqda. Ehtiyojmand aholining masalasini hal qilish viloyat va respublika idorasiga bog‘lanib qolgan. Mahalla xodimlari faoliyatini baholash mezoni yo‘q. Ularning ko‘p vaqtqi “qog‘oz to‘ldirish” va majlislarga ketmoqda.

2023-yil oktyabr oyidan boshlab bu sohaning tizimi o‘zgaradi hamda mahalla boshqaruviga soliqchi va ijtimoiy xizmat xodimi qo‘silib, “mahalla yettiligi” shakllantiriladii. Xususan, ehtiyojmand aholini ro‘yxatga kiritish, moddiy yordam, subsidiya va kredit ajratish kabi 70 dan ortiq masalalar, tuman va viloyat idoralariga chiqmasdan, mahallaning o‘zida jamoaviy hal qilinadi. Shuningdek, Bandlik, Tadbirkorlik va Kasanachilik jamg‘armalari mablag‘lari har bir mahallaga taqsimlab beriladi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI.** Mahallada qulay va elektron ish yuritish yo‘lga qo‘yiladi. Amaldagi uchta platforma – “Onlayn mahalla”, “Xotin-qizlar”, “Yoshlar portali” o‘zar integratsiya qilinib, yagona tizimda mujassamlashtiriladi. “Mahalla yettiligi” ishini muvofiqlashtirishda mahalla raislarining vakolatlari kengaytiriladi. Jumladan, ular hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, profilaktika inspektori, soliqchi va ijtimoiy xodimni rag‘batlantirish yoki intizomiy jazo qo‘llash bo‘yicha taqdimnomalar kiritish vakolatiga ega bo‘ladi [1.84].

Xususan, mahallalarning ichki yo‘llari, ichimlik suvi va elektr ta’mnoti, irrigatsiya tarmog‘ini yaxshilash bo‘yicha tizimli ishlar olib borilmoqda. Mahalla xodimlarining sektor rahbarlari va tegishli vazirlik va tashkilotlar bilan olib borgan uzviy hamkorligi natijasida bugungi kunga qadar ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarga ko‘maklar berilib, xotin-qizlarning bandligi ta’milanib kasb-hunarga o‘qitish ishlari jadal olib borilmoqda.

Yurtimizdagi mavjud barcha fuqarolar yig‘inlari qoshida tashkil etilgan “Ayollar maslahat kengashlari”da malakali psixologlarni jalg etgan holda ijtimoiy himoyaga va psixologik ko‘makka muhtoj ayollar uchun treninglar tashkil etilgan. “Har bir oila – tadbirkor” dasturi doirasida fuqarolarga imtiyozli kreditlar ajratish, fuqarolarning hunarmandchilik va kasanachilik bilan shug‘ullanishlariga imkoniyatlar yaratilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 19-yanvardagi PQ-92-son “Mahallalarda

yoshlar bilan ishslash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qaroriga asosan, har bir shaharcha, qishloq, ovulda, shuningdek, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar hamda ovullardagi har bir mahallada yoshlar yetakchisi lavozimi joriy qilindi. Yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, iqtidori, iste’dodi va tashabbuslarini rag‘batlantirish hamda hayotda o‘z o‘rnini topishlariga ko‘maklashish yoshlar yetakchilarining asosiy vazifalari etib belgilandi[2].

## TAHLIL VA NATIJALAR.

Mamlakatimizda barcha ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar aholining ijtimoiy talabalaridan kelib chiqib amalga oshirilmoqda. Buning uchun mahallalarga ko‘plab vakolatlar, tashkiliy va moliyaviy imkoniyatlar berilmoqda.

Bugungi kunda yurtimiz hududlaridagi muammolarni “mahallabay” aniqlash va bartaraf etish, xususan, hududlarda “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlari ijrosini ta’minalash maqsadida Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi va uning hududiy bo‘linmalari mas’ul xodimlaridan iborat Ishchi guruhlar tuzilgan hamda mazkur amaliyot natijasida joylardagi odamlarni qiyayotgan ko‘plab ijtimoiy muammolar hal etilmoqda.

Mahallalarda istiqomat qiluvchi fuqarolarga tomorqachilikni rivojlantirish maqsadida subsidiya ajratilib, ularning o‘quv kurslarida o‘qitilishi ta’milanmoqda. O‘quv kurslarida kasb-hunarga o‘qitilgan fuqarolarga o‘z tadbirkorlik faoliyatlarini boshlash uchun subsidiyalar ajratilmoqda.

“Mahallabay” tizimining amaliyotda samarali ishslashini ta’minalash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi va Jamoat xavfsizligi xodimlari tomonidan joylarda ishchi guruhlari tashkil etilib, yo‘l harakati xavfsizligi ta’milanmoqda.

Davlatimiz rahbari tomonidan yurtimizda barcha ijtimoiy-iqtisodiy dasturlar aholi talabidan kelib chiqib, joylarda amalga oshirilayotgani, buning uchun mahallalarga ko‘plab vakolatlar, tashkiliy va moliyaviy imkoniyatlar berilayotganligi alohida ta’kidlangan. Zamon shiddat bilan o‘zgaryapti. Mahallani joylarda muammolarni chinakam hal qiladigan institutga aylantirishimiz zarur. Yana tajriba orttiramiz, yana o‘zgartiramiz. Hayot bizni shunga majbur qilyapti. Hozirgi tahlikalarga yechim topamiz desak, bizning yagona yo‘limiz – mahalla, mahalla, mahalla va yana bir marta mahalla. Mahalla

tizimi obro‘yini qancha ko‘tarsak, odamlar ishonadi, odamlar bizdan rozi bo‘ladi, -deya ta’kidladi davlat rahbari.

Bugungi kunda “Mahallabay” ishslash tizimida har bir mahallaga tijorat banklarining mas‘ul xodimlaridan iborat doimiy vakil biriktirilib, ular mahalla raislari bilan birga xonadonlardagi ahvolni, ishsizlar soni, ularning qiziqishlari, hududning “o‘sish nuqtalari”, mavjud tadbirkorlik subyektlari faoliyatini kengaytirish masalalarini o‘rganmoqdalar. Har bir mahallani rivojlantirish bo‘yicha “Yo‘l xaritalari” ishlab chiqilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-dekabrdagi PF-29-sonli Farmoniga asosan mahallalarda tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minalash va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha tuman “hokim yordamchisi” lavozimi ta’sis etildi[3]. Ushbu lavozimlarga Respublika Ishchi guruhi bilan birlgilikda tuman korxona va tashkilotlarida ishlayotgan rahbar xodimlar saralab olindi. Lavozimga tayinlangan hokim yordamchilarining faoliyatini samarali tashkil qilish maqsadida o‘qitish, nazariy va amaliy mashg‘ulotlar asosida tajribasini oshirish yuzasidan o‘quv seminarlar tashkil etildi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-dekabrdagi PQ-31-sonli qaroriga asosan tijorat banki va hokim yordamchilarini faoliyati yo‘lga qo‘yilib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 24-dekabrdagi PQ-62-sonli qaroriga asosan hokim yordamchilarini faoliyatini muvofiqlashtirib borish maqsadida Mahallabay ishslash va tadbirkorlikni rivojlantirish boshqarmasi va hududlarda markazlar tashkil etildi [4].

**XULOSA.** Xulosa qilib aytganda, mahallalar mamlakatimizdagi aholini o‘zini o‘zi boshqarishda, fuqarolar xohish va istaklarini e’tiborga olishda va imkoniyatlar yaratishda mihim ijtimoiy institutga aylanib bormoqda. Shuningdek, hozirgi davrga kelib davlatning aholini ijtimoiy himoya qilish, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarni aniqlash kabi vakolatlari

ham mahallalar zimmasida ekanligi ular faoliyatining mazmun-mohiyatini tubdan o‘zgartirib bormoqda. Shu bilan birga, mahallalardagi tinch va osoyishta hayotni ta’minalash, oilalarni mustahkamlash chora-tadbirlarini ko‘rish, muhtoj fuqarolarga mehr-muruvvat ko‘rsatish, mahalla fuqarolar yig‘inlari faoliyatining asosiy yo‘nalishiga aylanib bormoqda. Bularning barchasi mahallalar faoliyati istiqbolni belgilovchi tamoyillardandir.

### ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Тўйчиев Б., Омонов Б. Сиёсий маданият. Монография. Тошкент, Tafsir Books, 2024. – 224 бет.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 19-yanvardagi PQ-92-son Mahallalarda yoshlar bilan ishslash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi Qarori. Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 20.01.2022 у., 07/22/92/0046-son.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 03.12.2021-yildagi Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minalash va kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risidagi PF-29-son Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/5758437>
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 03.12.2021-yildagi Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minalash va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha hokim yordamchilarini faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi PQ-31-son qarori. <https://lex.uz/uz/docs/5758155>
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 16.12.2021-yildagi Tomorqadan foydalanish samaradorligini oshirish, shuningdek, aholining tadbirkorlik tashabbuslarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘sishmcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi PQ-54-son qarori. <https://lex.uz/uz/docs/5777393>

